

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 14-fevral kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20250214>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari diqqatiga!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 14-fevral kuni soat 16:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy ("O'zkimyosanoat" AJ ma'muriy binosi) da o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining moliya-iqtisodiyot va transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarini tayinlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reyestri 2025-yil 21-yanvar holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reyestri 2025-yil 10-fevral holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2025-yil 14-fevral kuni soat 15:30 da boshlanib, soat 16:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi